



BOSHLANG'ICH SINIF O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA NUTQ O'STIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Mirkosimova H.M.

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti Psixologiya kafedrası
o'qituvchisi*

Tayanch so'zlar: nutq, og'zaki nutq, yozma nutq, nutq o'stirish, matn ustida ishlash.

Ключевые слова: речь, устная речь, письменная речь, речевое развитие, работа над текстом.

Key words: speech, oral speech, written speech, speech development, work on text.

Резюме:

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darslarida matn ustida ishlash orqali o'quvchilar nutqini o'stirishning psixologik xususiyatlari haqida fikr yuritilgan.

Резюме:

В данной статье рассматриваются психологические особенности развития речи учащихся при работе над текстом в начальных классах на уроках читательской грамотности.

Summary:

This article examines the psychological features of the development of students' speech when working on text in elementary school during reading literacy lessons.

Kirish. Ma'lumki, har bir insonning nutqi individual, o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, tug'ilgandan boshlab rivojlana boshlaydi. Olimlarning fikricha, go'dak 2 oyligida ixtiyoriy tovush chiqaradi, 4 oyligida «gu-gu»lab bir bo'g'inli so'zlarni takrorlagandek bo'ladi. Bola nutqi 2 bosqichda rivojlanadi: u dastlab asosan so'zni tushunadi, biroq kam gapiradi (bu sensor nutq deb ataladi), keyin esa faol nutq ham rivojlanadi. 3 yoshga to'lganidan keyin bolaning nutqi tez rivojlanib, takomillashishda davom etadi. Nutq bolaning boshqalar bilan muomala qilishning, atrofidagi dunyoni tushunishning asosiy vositasiga aylanadi. Bolaning fikrlashi qanchalik aniq rivojlansa, uning nutqi ham shunchalik samarali shakllanadi [1, 51-53].

Ba'zi psixologlarning qilgan hisoblariga qaraganda, ikki yashar bolaning so'z boyligi 250-400 so'zga yetadi, bolalar yetti yoshga yetganlarida ulardagi



soʻz boyligi 3000-3500 ga boradi. Bolalarda soʻz boyligi koʻpaya borgan sari ular nutqining semantik jihati ham rivoj topaveradi [2, 252].

Maktabgacha yoshdagi bolalarning tilni oʻrganishdagi oʻziga xos xususiyati har tomonlama kuzatuvchanlik, tanish narsa va hodisalarni bir-biridan ajrata olish, ularning oʻziga xos jihatlarini topish qobiliyatini talab etadi.

Maktabga kelish arafasida bolaning soʻz boyligi oʻz fikrini bayon eta oladigan darajada boʻladi. Agar bu yoshda meʼyorida rivojlanayotgan bola oʻz nutqida 500-600 soʻzni ishlatasa, 6 yoshli bola 3000-7000 soʻzni ishlatadi [1, 219-220].

Maktabgacha taʼlim yoshining oxirgi bosqichlarida bola nutq tovushlarini toʻgʻri eshitadi, ularni boshqa tovushlar bilan almashtirmaydi, tovushlarni toʻgʻri talaffuz etish malakasini egallaydi. Lekin bu savodga oʻrgatish davriga oʻtish uchun yetarli boʻlmaydi. Tilni uning fonetikasi va morfologiyasiga nisbatan faol oʻzlashtirish xususiyati namoyon boʻlmaganda, hali soʻzlarni egallamagan goʻdaklarni ona tiliga oʻrgatish muammosi yuzaga kelgan boʻlar edi. Shuni unutmashlik kerakki, bolaning bunday faoliyati kattalar bilan muloqotining uzluksiz natijasidir. Kichik yoshdagi bolalar bunday xususiyatga ega boʻlmaganlarida, kattalarning soʻzlar tarkibi va tovushlarni oʻrgatishga doir barcha harakatlari befoйда boʻlardi.

Boshlangʻich sinf oʻquvchilari nutqi asosan ot, feʼl, sifat, son va bogʻlovchilardan iborat boʻladi. 6-7 yoshli bola oʻz jumllarini murakkab grammatik tarkib asosida tuza oladi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Tajribalardan maʼlumki, bola maʼnosiz soʻzlardan koʻra maʼnodor tushunchalarni birmuncha tez va mustahkam eslab qolish xususiyatiga ega. Uning nutqi maktab taʼlimiga tayyorgarlik bosqichida kattalar bilan muloqotga kirishish, kishilarning fikrini uqib olish va toʻgʻri idrok qilish darajasida, nutqining tuzilishi va grammatik qoidalarga mos, mantiqan izchil, ifodali, miqdor va koʻlam jihatdan fikr almashishga yetarli boʻladi [3, 110].

Boshlangʻich taʼlim metodikasida yozma nutq ogʻzaki nutqdan faqat uni amalga oshirish texnikasiga koʻra farqlanadi. Boshlangʻich sinf oʻqituvchilari oʻrtasida oʻquvchini oʻqish va yozishga oʻrgatish uchun uning yozma nutqini shakllantirish yetarlidir, degan fikrlar mavjud. Aslida, yozma nutq ogʻzaki nutqdan faoliyat hamda ichki qurilish jihatidan farqlanishi sir emas.

Nutqning har ikkala shakli fikrimizni, tuygʻularimizni ifoda etadi, biroq jonli soʻzda fikrdan soʻzga koʻchish amalga oshiriladi. Ogʻzaki nutq oʻz vazifalariga koʻra boy va rang-barangdir. U turli xil axborotlarni olish vositasi sifatida



kishilar faoliyatining barcha sohalarida ko'p qirrali muloqot shakliga aylanib bormoqda.

Og'zaki nutqning o'ziga xosligi nimada? Eng avvalo, og'zaki nutq hamma vaqt so'zlovchiga ma'lum ma'noda suhbatdosh bo'lgan tinglovchilarga mo'ljallanadi. Tinglovchilarning yuz-ko'zlarida aks etgan hamdardlik, qiziqish yoki e'tiroz alomatlarini orqali ularning so'zlovchi nutqiga munosabatini bilish mumkin. Bu jonli aloqa so'zlovchiga mazmunga o'zgartirish kiritish, ovoz tembri va kuchini o'ylab olish, bu o'zgarishlar tinglovchilar munosabatiga qanday ta'sir etganini kuzatish imkonini beradi. Og'zaki nutq unga u yoki bu darajada xos bo'lgan improvizatsiya (tayyorgarliksiz aytish) bilan ham farqlanadi. Albatta, qanday improvizatsiya kerak bo'lishi, ma'ruza yo suhbat davomida nimadan voz kechish, qanday yangi usullarni qo'llash, sinf o'quvchilari munosabatini o'zgartirish uchun nimalar qilishni oldindan ko'ra bilish qiyin. Bu so'zlovchi mahoratiga ham, materialni bilishga ham, qator shaxsiy sifatlarga ham bog'liq.

Zamonaviy maktabda o'qituvchining jonli nutqiga texnik vositalar yordamga keladi. Ular nutq ifodaliligini oshiradi, hissiy ta'sirini kuchaytiradi. O'qituvchi nutqi bu holda go'yo birlashtiruvchi bo'lib qoladi: u kinokadr, musiqa, fotoishlanma bilan birga idrok etiladi. O'qituvchi so'zi alohida tasviriy-ifodaviy sifatlarni ham aks ettiradi. Toki og'zaki nutq uni idrok etish jarayonida zudlik bilan tushunishni talab qilar ekan, o'ziga xos leksik-grammatik xususiyat ham kasb etadi.

Og'zaki nutq – yorqin, shaklan obrazli, ichki emotsional nutq. Shu bois u til vositalari va uslubiy xususiyatlar xilma-xilligi bilan farq qiladi. Og'zaki nutqning to'liqlanganligi, emotsionalligining yuqoriligi ekspressiv (hissiy bo'yoqdor) leksikani saralash zaruratini kuchaytiradi. So'zlovchi va tinglovchi so'zning qanday tonallik va sur'atda berilishiga befarq bo'la olmaydi, zero, - so'z yarmi tinglovchiga tegishlidir. Og'zaki nutq jumla va gaplarning kam so'zli bo'lishi hamda ohangdorligini talab qiladi. Mantiqiy va psixologik to'xtamlarni to'g'ri joylashtirish, fikrni rivojlantirishda dialogik qismlarni belgilash, nutqning ifodaliligini o'ylash taqozo qilinadi. Tabiiyki, so'z talaffuzi, diktsiya muammosi alohida dolzarblik kasb etadi. Yaxshi diktsiya (aniq talaffuz) og'zaki nutqning fonetik va musiqiy jaranglashida juda muhim. Og'zaki nutqning yuqoridagi farqlovchi belgilari qaysidir ma'noda nisbiy sanaladi. Zero, ularning ayrimlari (to'xtam, intonatsiya (ohang), mantiqiy urg'u) yozma nutq uchun ham u yoki bu darajada xos. Og'zaki nutqda ular ta'sirli, faol namoyon bo'ladi. Buni og'zaki nutqni rivojlantirish ishlarida hisobga olish juda muhim.



Yozma nutq – ma‘lum tarzda grafik shakllangan nutq bo‘lib, u harf tasvirlariga tayanadi. Yozma nutqda so‘z ustida ishlash ko‘nikmalari, yozilganni tahlil qilish, fikr va uning ifoda shaklini takomillashtirish ustida ishlash malakasi taqozo qilinadi. Yozma nutq manbayi o‘quvchining sinf oldidagi jamoaviy tinglovchiga mo‘ljallangan og‘zaki javoblaridir. Biroq boshlang‘ich sinflarda shevaning keng qo‘llanilishi natijasida talab darajasidagi ixtisoslashgan o‘quv og‘zaki nutq madaniyatiga erishish ancha mushkul.

Yozma nutq og‘zaki nutqdan bir qadar shakllanganligi, so‘zlarning o‘ta sinchkovlik bilan tanlab olinishi, grammatik jihatdan aniq, lekin murakkab shakllanganligi, og‘zaki nutq uchun xos bo‘lgan ohang, mimika va qo‘l harakatlarining bevosita qo‘llana olmasligi bilan ham farqlanadi.

Shuni ta‘kidlash kerakki, maktabda o‘qitishning dastlabki yillarida o‘quvchilarning og‘zaki nutqi ularning yozma nutqiga nisbatan to‘laroq shakllangan bo‘lib, o‘qitish jarayonida alohida ahamiyat kasb etadi. O‘qish va yozish o‘quvchilar uchun o‘rganishning maxsus shakli bo‘lib qoladi. Keyinchalik esa ular o‘quvchilar uchun bilimlarni o‘zlashtirishda bir xil ahamiyat kasb etadi.

Nutqning asl nutq (“tashqi nutq”) va ichki nutq deb ataladigan turlari ham ma‘lum. Boshlang‘ich sinf dasturi va darsliklarida tashqi nutqni rivojlantirishning metodik usullari va vositalarini o‘rganish ko‘zda tutiladi.

Tashqi nutq tovushlarga yoki grafik belgilarga qaratilgan nutq hisoblanadi.

Ichki nutq esa talaffuz qilinmaydigan va yozilmaydigan mantiqiy nutq bo‘lib, u go‘yo insonning o‘z- o‘ziga qaratiladi. U so‘zlovchi ongida bilishga yordam beradigan turli xil masalalarni muhokama qilish va hal etishga qaratiladi. Ichki nutq tashqi nutq asosida, tovush yoki yozuv qo‘llanmagan holda, faqat ovoqli nutqdagi so‘zlar haqidagi aniq tasavvurlar bilan kechadigan aqliy jarayon tarzida amalga oshadi. O‘quvchi xayolan gaplar tuzadi, hatto ularni xayolan aytadi, keyin talaffuz qiladi va yozadi.

Maktab amaliyoti va o‘quvchilar nutqini rivojlantirishga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlarda ichki nutq masalalariga e‘tibor yetarli emas. Ichki nutqni rivojlantirishning muhimligi nutqiy faoliyatning bu turiga yuqorida berilgan ta‘rifdanoq ko‘rinib turibdi. Chunki yangi bilimlarni o‘zlashtirish, mashqlarni bajarish, materialni o‘ylab olish va og‘zaki fikrlash, ayniqsa, yozuvga tayyorgarlik kabi jarayonlarning barchasi ichki nutq darajasida kechadi.

Psixologik ma‘lumotlarga ko‘ra, fikr va tashqi nutqni, shuningdek, o‘z xatti-harakatini boshqara olish qobiliyatini shakllantirish ichki nutq bosqichini bosib o‘tar ekan. Demak, o‘qituvchilarni ichki nutqning tiklanish va rivojlanish jarayoni, uni takomillashtirishning metodik vositalari doimo qiziqtirishi lozim.



Matn ustida ishlash jarayonida ham o'quvchilar ichida (ovoz chiqarmay) o'qish, matnni o'zlashtirish, savol-topshiriqlar ustida ishlashda bevosita ichki nutqdan foydalanadilar.

-Og'zaki nutqning ichki tuzilishi, avvalo, nutq va tafakkur munosabatiga ta'sir o'tkazadi. Yozma nutq fikrlashni intizomli qiladi, bayon qilinadigan fikrlarni qismlarga bo'lishga va uni yoyiq ifodalashga o'rgatadi. Bu bolani bir paytning o'zida ham - yozuvchil, ham muallif nuqtayi nazarini tushunish, matn vositasida ifodalangan boshqaning nuqtayi nazarini qabul qilishga qodir -kitobxon sifatida tarbiyalashni ko'zda tutadi. Bu ikki yoqlama vazifani bajarish o'qish darslaridagi ish mazmuni va metodlarini mutlaqo o'zgacha tushunishni ko'zda tutadil.

Nutq tafakkur bilan ham chambarchas bog'liqdir. Nutq bo'lmasa, tafakkur ham bo'lmaydi, til materiali bo'lmasa, fikrni ifodalab berib bo'lmaydi [5, 199]. Nutqda kishining o'y-fikrlari shakllanadi va mavjud bo'ladi.

Boshlang'ich sinflarning o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilar nutqini o'stirish bo'yicha yangicha fikrlashni maktab ta'limining an'anaviy mazmun va metodlari doirasida tarbiyalab bo'lmaydi. Ko'plab zamonaviy metodik adabiyotlarda uzluksiz ta'lim, xususan, boshlang'ich ta'limda mustaqil fikrlash – empirik tafakkur tarbiyasi yuzasidan qizg'in fikr-mulohazalar yuritilmoqda. Metodist olimlar ham, ruhshunoslar ham bilimlarni egallashda o'quvchilar duch keladigan qiyinchiliklar sabablarini aynan shunda deb biladilar.

Nutqni o'zlashtirish qonuniyatlaridan biri – so'z ma'nosini o'zlashtirish uchun tafakkur mexanizmlari ishlashi zarurligidir. Ko'rinadiki, fikrlash faqat tushunchani o'zlashtirish uchun qo'llanmay, balki o'quvchilar nutqining grammatik qurilishi takomiliga ham ta'sir etadi.

Boshlang'ich ta'limning dastlabki ikki yilida o'qishning asosiy turi ovoz chiqarib o'qish bo'lib, ichida o'qish yordamchi rol o'ynaydi. O'qishdan oldin o'quvchilarni matnni idrok etishga tayyorlashga doir kirish suhbatlari o'tkaziladi. Tushunarsiz so'zlarni sharhlash kirish suhbatining tarkibiy qismidir. Kirish suhbatidan keyin o'qituvchining ta'limiy ahamiyatga ega namunali o'qishi amalga oshiriladi.

Birinchi va ikkinchi sinf o'quvchilari ta'limiy materiallarning ichki bog'lanishlariga ahamiyat bermay, ma'nosiga tushunmay quruq eslab qoladilar. O'rganilayotgan materiallarni mantiqiy tahlil qilmay, yodaki o'zlashtiradilar [3,120].

Namuna bo'yicha ishlash – qonuniyatli jarayon. Chunki nutq ko'proq faqat taqlid jarayonida o'zlashtiriladi. O'quvchilar namunaviy nutqqa taqlid qilish



orqali o'z nutqini leksik va grammatik jihatdan boyitadi. Unda tilni sezish rivojlanadi, nutqiy xotira takomillashadi.

Tabiiyki, o'zlashtirmovchilikning psixologik sabablari, shuningdek, aqliy rivojlanishni tashxislash masalalari, o'quvchilarning nutqiy malaka va ko'nikmalarini zamonaviy texnologiyalar asosida shakllantirish usullari bilan bir qatorda, bilish faoliyatining nutqiy jihatlari o'z yechimini kutayotgan masalalardandir.

Badiiy matnni o'qish jarayonida o'quvchilarda kitobxonga xos turli-tuman hayajon to'planadi, asarlarni o'qish nutqni ham rivojlantiradi. Badiiy matnlar aniq tasavvur va tushunchalarni shakllantirish asosida o'quvchilar lug'at boyligini boyitadi, to'ldiradi va faollashtiradi, fikrni og'zaki va yozma tarzda bayon qilish ko'nikmasini rivojlantiradi. Shuni hech qachon unutmaslik kerakki, badiiy asarlar matni o'quvchilarda asosiy o'qish malakasi hisoblangan nutq malakalarining shakllanishi va rivojlanishi uchun ajoyib material hisoblanadi.

Psixologlar boshlang'ich sinf o'quvchilarida asarning badiiy dunyosiga nisbatan ikki xil munosabat bo'ladi, deb hisoblaydilar. Munosabatning birinchi hissiy-obrazli turi bolaning asar markazida turgan timsollarga nisbatan bevosita hissiy reaksiyasini namoyon etadi. Ikkinchi intellektual-baholovchi turi bolaning hayotiy va kitobxonlik tajribasiga bog'liq bo'lib, unda tahlil elementlari mavjud bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinflarda badiiy matnni o'qish, undagi personajlarning xatti- harakatlari natijalarini to'g'ri ko'rsata olish, ularga baho berish, matn g'oyasini tushunish o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini, og'zaki va yozma nutqlarini rivojlantirish imkoniyatini yaratadi.

Adabiyotlar:

1. Tarbiya (ota-onalar va murabbiylar uchun ensiklopediya) / Tuzuvchi M.N.Aminov, mas'ul muharrir A.M.Majidov. – T.: -O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2010.
2. Ivanov P.I., Zufarova M.E. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008.
3. G'oziyev E. Psixologiya (Yosh davrlari psixologiyasi). – Toshkent: O'qituvchi, 1994.
4. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 12 jildli. – T.: -O'ME Davlat ilmiy nashriyoti, 2004. J.6.
5. Zufarova M.E. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010.